

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

**“BOSHLANG'ICH VA MAKTABGACHA TA'LIM METODIKASI”
KAFEDRASI**

**“SIFATLARNI MA'NOVIY GURUHLARGA BO'LIB
O'RGATISH - O'QUVCHILAR SO'Z BOYLIGINI OSHIRISH
OMILLARI” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: “Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish” ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi 4 kurs talabasi
Baysariyeva A.

ILMIY RAHBAR:

f.f.n.H.Mirhaydarov

GulDU «Boshlang'ich va maktabgacha ta'lim metodikasi» kafedrasining 30. 05. 2016 yildagi 10–sonli majlis qarori bilan himoyaga tavsiya etildi.
Kafedra mudiri: **F. SHARIPOV**

GULISTON – 2016

**MAVZU: SIFATLARNI MA'NOVIY GURUHLARGA BO'LIB
O'RGATISH O'QUVCHILAR SO'Z BOYLIGINI OSHIRISH OMILLARI**

REJA:

.KIRISH.

**I BOB. BOSHLANG'ICH SINFLARDA SIFAT MAVZUSINING
O'RGANILISHIGA DOIR.**

- 1.1. Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumining o'rganilishi.
- 1.2. Sifat yasovchi qo'shimchalar va ularning imlosini o'tish.

**II BOB. BOSHLANG'ICH SINFLARDA SIFATNING MA'NOVIY
GURUHLARIGA BO'LIB O'RGATISHGA DOIR.**

- 2.1. Boshlang'ich sinflarda sifatning ma'naviy guruhlarini o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan hamda turli xil metodlardan foydalanish.
- 2.2 Tajriba-sinov ishlari natijalari

XULOSA

ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng barcha sohalarda bo‘lgani kabi ilm va fanda ham o‘zgarishlar sodir bo‘la boshladi. Prezidentimiz I.A.Karimov bu o‘zgarishlarning ahamiyati haqida gapirib shunday degan edi. –“Iqtisodiy muammolar ertami kechmi hal etiladi, lekin milliy boyligini qadrlamagan, uning taraqqiyoti uchun qayg‘urmagan davlatning kelajagi bo‘lmaydi. Buni doimo yodda tutmog‘imiz lozim”? A.Qahhor ta’kidlaganidek kitobxonga fikrni yoki bir narsani tasavvur qildirish uchun aniq, ravon va sodda til kerak.

Kishilik jamiyatida nutqning ahamiyati beqiyos, nutq orqali insonlar birlari bilan o‘zaro fikr almashadilar. Nutq tinglovchi uchun yaqinlik bilimlar va o‘zgarishlar xabarchisi bo‘lmog‘i lozim. Shuning uchun ham yaxshi nutq deyilganda aytilmoqchi bo‘lgan maqsadning tinglovchi yoki kitobxon to‘liq va aniq qilib borishi u narsa ma’lum ta’sir o‘tkazish tushuniladi. Nutq faoliyatida nutq asosi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadni eng aniq, eng to‘g‘ri, eng ta’sirli va tushunarli qilib ifodalashga, so‘zlarni va so‘z birikmalarini topishga, to‘plashga intiladi.

Nutqning ravonligi, go‘zalligi, birinchidan nutq egasining so‘z boyligiga bo‘lsa, ikkinchidan shu nutqni hosil qiluvchi vositalarning rang barangligiga ham bog‘liq. Istiqlol samarasi o‘laroq tilshunoslikda yangi tadqiqotlar maydonga keldi. Ammo hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilining morfologiya bo‘limida, ayniqsa o‘rta maktablarda sifatlarni o‘qitishning bir muncha muammolari mavjud. Ona tili ta’limi oldiga qo‘yilgan ijtimoiy buyurtma o‘quvchi shaxsini erkin fikrlashga o‘zgalar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga ya’ni o‘quvchilarni sifatlarning ahamiyatini o‘rgatib kommunikativ savodxonligini rivojlantirishga o‘rgatishdan iborat. Ana shu takomillashtirilgan DTSda o‘quvchining jozibali ravon nutq madaniyati asosiy o‘rinda turadi. Buni egallash uchun o‘quvchining so‘z boyligini oshirish adabiy til talaffuz meyorlarini egallashni uqtirishdir.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari— boshlang‘ich sinf ona tili darslarida сифатнинг маъновий гуруҳларини o‘rgatishning usullarini ishlab chiqish, uni

amaliyotda qo'llashdan iborat. Matnlar yordamida o'quvchilarni so'z turkumlari bo'yicha tahlilga o'rgatish.

Tadqiqot maqsadiga asoslanib quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Boshlag'ich sinf o'quvchilariga ona tili darslarida сифат so'z turkumini o'rgatish malakalarini shakllantirish – pedagogik muammo ekanligini nazariy jihatdan asoslash;

2. O'quvchilarning og'zaki va yozma savodxonligini oshirish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart – sharoitlarni aniqlash;

3. O'quvchilarga dars jarayonlarida сифатнинг маъновий гуруҳларини o'rgatishni ta'minlaydigan shakl va metodlarni ishlab chiqish, ilmiy asoslash va tajribada tekshirish.

Mavzuning o'rganilish darajasining qiyosiy tahlili. O'zbek tilida сифат сўз туркуми ва сифатдаги маъновий гуруҳларни олимларимиздан А.Г'ulomov, А.Hojiev, M.Mirtojiev, Yo.Tojiev kabi olimlar fe'l so'z turkumi yuzasidan ilmiy ishlar olib borgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqotda boshlang'ich sinflarda сифат so'z turkumini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'rganish aniq belgilab berildi hamda fe'ning kotegoriya va nokategorial formalar tahlil etildi.

Tadqiqot predmeti va ob'ekti sifatida boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'rgatiladigan сифат so'z turkumini tanlab oldik, **predmetini** — boshlang'ich sinf ona tili darslarida сифатнинг маъновий гуруҳлари мавзусини zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida o'rgatish, shuning barobarida o'quvchilarni ona tili darslariga bo'lgan qiziqishlarini oshirishdan iborat deb belgiladik.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha tavsiyalar, boshlang'ich sinf o'quvchilariga fe'l so'z turkumini o'rgatish usullariga oid ilmiy-nazariy ma'ruzalar tayyorlashda, ish tajribalarida ommalashtirishda xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki asosiy bob, umumiy xulosa va metodik tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlardan iborat.

I BOB. BOSHLANG'ICH SINFLARDA SIFAT MAVZUSINING O'RGANILISHIGA DOIR.

1.1. Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumining o'rganilishi.

Sifatni o'rganish tizimi materialni leksik va grammatik tomon-dan izchillik bilan boyitib, murakkablashtirib borishni ko'zda tutadi. O'quvchilar 1- va 2-sinfda sifatning leksik ma'nosini kuzatadilar, sifatga *qanday?*, *qanaqa?* so'rog'ini berishga o'rganadilar; 3-sinfda sifat so'z turkumi sifatida o'rganiladi; 4-sinfda ilgari o'rganilganlar takrorlanib, grammatik materialga bog'liq holda *qip-qiz.il*, *yam-yashil* kabi orttirma darajadagi (atama aytilmaydi) sifatlarning yozilishi o'rgatiladi. Ona tili va o'qish darslarida o'quvchilar nutqi yangi-yangi sifatlar bilan boyitiladi, ularga oldindan ma'lum bo'lgan sifatlarning ma'nosiga aniqlik kiritiladi.

Sifatni o'rganish metodikasi uning lingvistik xususiyatlariga asoslanadi. Sifat predmetning belgisi (rangi, hajmi, shakli va ko'rinishi, maza-ta'mi, xarakter-xususiyati, hidi, vazni, o'rin va paytga mu-nosabati)ni bildiradi. Sifatning leksik ma'nosi uni ot bilan bog'liq holda o'rganishni talab qiladi. Sifatni tushunish uchun 1-sinf-danoq o'quvchilar e'tibori sifatning otga bog'lanishini aniqlashga qaratiladi. O'quvchilar predmetning belgisini aytadilar, ularda so'roq yordamida gapda so'zlarning bog'lanishini aniqlash ko'nikmasi o'stiriladi, ya'ni ular gapdagi sifat va otdan tuzilgan so'z birikmasini ajratadilar (atama aytilmaydi). Keyingi sinflarda bu bog'liqlik aniqlashtiriladi. Shunday qilib, sifatning semantik-grammatik xususiyatlari sifat ustida ishlashni leksik va grammatik (morfologik va sintaktik) yo'nalishda olib borishni talab etadi.

Boshlang'ich sinflarda „Sifat“ mavzusi quyidagi izchillikda o'rganiladi: 1) sifat bilan dastlabki tanishtirish (1-, 2-sinf); 2) sifat haqida tushuncha berish (3-sinf); 3) shu grammatik mavzu bilan bog'liq holda ayrim sifatlarning yozilishini o'zlashtirish (4-sinf).

Sifat bilan (atamasiz) dastlabki tanishtirish (birinchi bosqich) sifatning leksik ma'nosi va so'roqlari ustida kuzatish o'tkazishdan boshlanadi. Predmetning belgilari xilma-xil bo'lib, uni rangi, mazasi, shakli; xil-xususiyatlari tomonidan

tavsiflaydi. Shunday ekan, sifat tushun-chasini shakllantirish uchun uning ma'nolarini aniqlash talab etiladi.

O'qituvchi predmetni yoki uning rasmini ko'rsatadi, o'quvchilar uning belgilarini aytadilar va yozadilar. Masalan, (*qanday?*) olma — *qizil, shirin, yumaloq olma*; (*qanday?*) ip — *uzun, ko'k ip*. Albatta, suhbat asosida o'quvchilar olma, ip so'zlari *nima?* so'rog'iga javob bo'lib, predmet nomini bildirishi, *qizil, shirin, yumaloq* kabi so'zlar *qanday?* so'rog'iga javob bo'lib, predmetning belgisi (rangi, mazasi, shakli) ni bildirishini aniqlaydilar. O'qituvchi atrofimizni o'rab olgan pred-metlarning o'z belgilari borligini, ular bir-biridan shu belgilar bilan farqlanishini yana bir-ikki misol bilan tushuntiradi (*Qanday?* daraxt - *Katta, chiroyli, sershox, ko 'm-ko 'k daraxt. Qanaqa ? shkaf — Oynali, baland shkaf*). Xulosa chiqariladi: *qanday?* so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar predmet belgisini bildiradi.

O'quvchilar belgi bildirgan bunday so'zlarning nutqimizdagi ahamiyatini anglashlari uchun sifat ko'p uchraydigan matn tanlanib, awal sifatlarini tushirib qoldirib, so'ngra sifatleri bilan o'qib beriladi va mazmuni taqqoslab ko'rsatiladi. Predmetni aniq tasvirlash uchun uning belgisini bildiradigan so'zlardan foydalanilgani tushuntiriladi. Bu darslarda ko'rgazma vositalar (predmetlar, predmet rasmlari, sujetli rasmlar)dan keng foydalaniladi.

O'quvchilar *qanday?*, *qanaqa?*so'roqlariga javob bo'lgan (predmet belgisini bildirgan) so'zlarni o'zlashtirishlari uchun mashqning quyidagi turlari samarali hisoblanadi: 1) so'roq yordamida predmetning belgisini bildirgan so'zlarni tanlash; 2) aralash berilgan so'zlardan gap tuzish; 3) matndan *kim?yoki nima?*so'rog'iga javob bo'lgan so'zni va unga bog'langan *qanday?* va *qanaqa?* so'rog'iga javob bo'lgan so'zni tanlab (so'z birikmasini topib) aytish va yozish; 4) tayanch so'zlar va rasm asosida gap yoki kichik hikoya tuzish.

Ikkinchi bosqichda asosan ikki vazifa: „Sifat“ tushunchasini shakllantirish hamda o'quvchilar nutqini yangi sifatlar bilan boyitib borish, fikrni aniq ifodalash uchun mazmunga mos sifatlardan nutqda o'rinli foydalanish ko'nikmasini o'stirish hal qilinadi.

„Sifat“ tushunchasini shakllantirish o'quvchilarning „predmet belgisi“ degan umumlashtirilgan kategoriyani o'zlashtirish darajasiga bevosita bog'liq. Shu maqsadda rang, maza, shakl, hajm, xil-xususiyat bildiradigan so'zlar guruhlanadi va shu so'zlarning xususiyatlari murnlashtiriladi. Sifatning leksik ma'nosi bilan birga uning xarakterli grammatik xususiyatlari ham qayd etiladi. Sifatlarning xususiyatlarini umuinashtirish asosida o'quvchilar uning so'z turkumi sifatidagi °²ga xos ko'rsatkichlarini ajratadilar: a) predmet belgisini bildiradi,

b) *qanday?* yoki *qanaqa?* so'rog'iga javob bo'ladi, d) gapda otga bog'lanib, shu ot bilan so'z birikmasi hosil qiladi, ikkinchi darajaii bo'lak vazifasida keladi.

Bu sinfda og'zaki va yozma ijodiy ishlar (maktab bog'i yoki parkka ekskursiya vaqtida kuzatilgan daraxt, qushlar, hayvonlarni tasvirlab kichik hikoya tuzish kabilar)ga katta o'rin beriladi.

O'quvchilarning sifatning leksik ma'nosi haqidagi tushunchalarini chuqurlashtirish va predmetni bar tomonlama tasvirlash malakasini o'stirish uchun:

1) berilgan predmetlarning rangi, mazasi, shakli, xususiyatini ifodalaydigan sifatlar tanlash va yozish: *Qanday? shaftoli — Shirin, suvli, tuksiz shaftoli. Qanday? kitob Qalin, qiziqarli kitob;*

2) berilgan belgilariga qarab qaysi hayvon ekanini aniqlash: *Tikanli, kichkina, foydali ... (tipratikan). Ehtiyolkor, ayyor, yovvoyi ... (tulki);*

3) predmetlarning belgisiga qarab topishmoqlarning javobini aytish kabi mashqlardan foydalanish mumkin.

Sifatning nutqimizdagi, fikrni aniq va tushunarli ifolashdagi o'rnini puxta o'zlashtirishga erishish uchun ma'nodosh va zid ma'noli sifatlar ustida ishlash, o'qish darslarida sifatning o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishini kuzatish maqsadga muvofiq. Sifatni o'rganish jarayonida so'z yasashga oid mashqlarni muntazam o'tkazib borish o'quvchilarda u yoki bu so'z turkumini yasash uchun so'z yasovchi qo'shimchalardan ongli foydalanish malakasini shakllantiradi.

Uchinchi bosqichda sifat haqidagi bilimlarni takomillashtirish, og'zaki va yozma nutqda sifatlardan aniq, o'rinli foydalanish ko'nik-masini o'stirish bilan bog'liq holda *-roq* qo'shimchasi bilan qo'llangan sifatlarni va *ko'm-ko'k, yam-yashil*

kabi sifatlarni to'g'ri yozish malakasi shakllantiriladi. Tsh mazmuni shu vazifalarni bajarishga qarab belgilanadi va o'quvchilar nutqini o'stirishga qaratiladi.

Nazariy ma'lumotlarga asoslanib: matnda berilgan otlarning belgilarini ifodalaydigan sifatlarni tanlab qo'yish, gapda sifat bog'langan otni (so'z birikmasini) aniqlab yozish; otga mos sifatlar tanlab predmetni tasvirlash, berilgan sifatlar yoki so'z birikmasi bilan gap tuzish kabi mashqlardan foydalaniladi. Mashq mate-rialini tanlashda *-roq* qo'shimchasi bilan qo'llangan *yaxshiroq*, *aqlliroq* kabi, shuningdek, *tip-liniq*, *sap-sariq* kabi sifatlar ko'proq bo'lishiga e'tibor beriladi. O'quvchilarning mustaqilligi osha borgan sayin mashq topshiriqlari ham asta-sekin murakkablashtira boriladi. Shunday qilib, sifatni o'zlashtirishda uni ot bilan o'zaro holda o'rganishga asoslaniladi.

Topshiriq.

Berilgan so'zlarni tarkibiy qismlarga ajrating. Sifatlarning qanday yasalishini ayting.

Shirin, oq, katta, shirali, mazmundor, serunum, kamhosil, ko'ylakbop, xushfe'l.

Bu topshiriqni bajarishda o'quvchilarni ikki guruhga bo'lib olamiz.

Birinchi guruh: Binafsha.

Ikkinchi guruh: Lola.

Binafsha guruhining a'zolariga tub sifatlari, ikkinchi Lola guruhiga esa yasama sifatlarni topishini buyuramiz. O'quvchilarga doskani ikkita teng bo'lakga bo'lib beriladi. O'quvchilar tortib saqlab, orfografik xatolarga yo'l qo'ymasligi, hamda galma-galdan doskaga va o'z daftarlariga, chiroyli yozishi, tez bajarishi e'tiborga olinadi. Birinchi bajargan guruh a'zolari a'lo baho va qizil yulduzchalar bilan taqdirlanadi. Birinchi navbatda belgilangan topshiriqni bajargan guruh

Binafsha: shirin, oq, katta.

Lola guruhi: shirali, mazmundor, serunum, kamhosil, ko'ylakbop, xushfe'l. G'olib guruh aniqlanadi, taqdirlanadi.

Yuqoridagi topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchilar sifatlarning yasalishi tub va yasama ekanligini anglab yetdilar. O'quvchilar bu haqidagi umumiy

bilimlariga qoniqish hosil qilgach, darslikda berilgan nazariy ma'lumotlarni tushuntiramiz.

Sifatlar tarkibiga ko'ra tub va yasama sifatlarga bo'linadi. Tarkibida so'z yasovchi qo'shimchalari bo'lmagan sifatlar tub sifatlar, asos va yasovchi qismdan iborat bo'lgan sifatlar yasama sifatlar hisoblanadi.

Yasama sifatlar asosga qo'shimchalar qo'shish yoki so'z qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi.

O'quvchilarga nazariy ma'lumot tushuntirilgach, ularning qay darajada anglaganligini tekshirib ko'rib bilimlarini yanada mustahkamlash maqsadida 328-mashqni bajartiramiz.

Oybekning "Bolalik" asaridan olingan gaplarni o'qing. Qavs ichidagi sifat yasovchi qo'shimchalardan mosini nuqtalar o'rniga qo'yib, ko'chiring.

Bu mashqni darsda bee'tibor o'tirgan o'quvchilarga o'qitib, mashqni topshiriq asosida ularga bajartiramiz.

1. *Otin bibi qari, jiddiy, sersavlat xotin.*
2. *O'ymakor gullari bilinmaydigan darajada o'chgan, qo'sh tabaqali eski eshikka kiramiz.*
3. *Pochcham ellikdan oshgan, novcha, kasalmand rangpar kishi.*
4. *Cho'ponlar sezgir itlar ham ziyrak, bo'ridan ham ayyor.*
5. *Do'mbirachi qadimgi qozoq hayotidan dostonlar kuylamoqda.*

Bu usulda mashqni bajarish o'quvchilarning xushyorligini oshiradi, hamda mavzuni qay darajada o'zlashtirganligini anglashga yordam beradi. Albatta, tez va to'g'ri bajargan o'quvchilar rag'batlantirilib, baholanadi.

Yuqoridagi mashqni o'quvchilarning qo'shimchalar qo'shish vositasida yasalgan sifatlarni aniqlashdagi bilimlari tekshirilib ko'rilsa quyidagi mashqda esa umuman sifat haqidagi bilimlari tekshiriladi.

Matnni o'qing. Sifatlarni topib izohlang.

Biz darsning samaradorligini oshirish, vaqtdan yutish, o'quvchilarning diqqat e'tiborini tortish, xotiralarini kuchaytirish va izlanishga chorlash maqsadida mashqni o'quvchilarga yanada tushunarli bo'lishi uchun uni og'zaki bajaramiz.

1. *Oldimizda mevali va mevasiz daraxtlari ko‘p bo‘lgan o‘rmon. Archa ham serob. O‘riklarning yaprog‘i qizil, qontalash. Xuddi birov ularning shoxiga bir satil qizil bo‘yoqni sepib tashlaganday. Pastga egilgan yaproqlari sariq ipakday mayin. Ko‘zga shunday jozibali ko‘rinadiki, uzib-uzib g‘arch-g‘urch tishlaging keladi.* (Sh.Xolmirzayev).

2. *Hindubek turkiy, forsiy, tillarni mukammal o‘rgangan, ilmli, ma‘rifatli, dilkash kishi bo‘lganligi uchun Boburning eng yaqin beklari qatoriga kirgan edi.* (P.Qodirov).

3. *Suv shishadek tiniq* (S. Anarboyev).

4 *Hozir ular uchun eng bexatar yo‘l Toshkent edi.*

Mashqni og‘zaki bajarish jarayonida o‘quvchilarning sifat haqidagi umumiy tushunchalari aniqlandi.

Mashqni sifatlarning hamma turlari ishtirok etgan. Ularga qo‘shimcha savollar berish orqali aniqlaymiz. O‘quvchilar javobidan qoniqish hosil qilgach, ularning bilim darajalari ta‘kidlanadi.

Bugungi o‘tilgan mavzu o‘quvchilarga qay darajada tushunarli bo‘lganligini ularga savollar bilan murojaat qilish orqali bilib olamiz. Chunki, savol berish ham bir san‘atligini o‘qituvchi ham chuqur anglashi va o‘quvchilarga ham singdirishi kerak. Jo‘yali savollarda qandaydir tushunib yetilmagan teranlik bo‘lib, o‘quvchilarni izlanishga chorlaydi.

Savol

1. Tub sifatlar deb qanday sifatlarga aytiladi.
2. Yasama sifatlar qanday qismlarga ajraladi.
3. –li, -siz, -chan qo‘shimchalari yordamida sifatlar hosil qiling.
4. –ba, -be, -ser qo‘shimchalari yordamida sifatlar yasang.

Sifat haqidagi bor bilgan ma‘lumot ya‘ni bilimlariga tayangan holda umumiy ma‘lumotlarni yodga olinadi. Buning uchun “So‘z ustida so‘z” usulini o‘tkazish tartibidan foydalanamiz. Ushbu usul o‘quvchilarning bilimlarini qay darajada o‘zlashtirganligini aniqlash imkonini beradi.

O'quvchilarning analitik (amaliy) tafakkurini (aniqlash imkoniyatini) umumiy xulosa qabul qilish salohiyatini o'stiradi. Sharoitga qarab to'rtta kichik guruh hosil qilinadi. Ular maslahatlashib har bir guruh a'zolari o'zlariga yuklangan topshiriqni bajarishadi.

Birinchi guruh: Zukkolarga tub sifatlarga aytiladi?

Ikkinchi guruh: A'lochilar a'zolariga.

Yasama sifatlarni qanday qismlarga ajraladi.

Uchinchi guruh: Ilg'orlar a'zolariga –li, –siz, –chan qo'shimchalari yordamida sifatlarni hosil qiling.

To'rtinchi guruh: Topqirlar a'zolariga –ba, –be, –ser qo'shimchalari yordamida sifatlarni hosil qiling.

Guruhlar topshiriqni tez bajarishi, tartib saqlashi, to'g'ri bajarishi, bir guruh bajargan topshiriqni 2-guruh tekshirib, aytib o'tilmagan ma'lumotlar to'ldiriladi. To'g'ri bajargan guruh taqdirlanadi.

Javob

1. Zukkolar guruhi: Tarkibida so'z yasovchi qo'shimchalari bo'lmagan sifatlarni tub sifatlarni deyiladi.

2. A'lochilar guruhi: Yasama sifatlarni asosga qo'shimcha qo'shish orqali hosil qilinadi.

3. Ilg'orlar guruhi: gulli, suvsiz, mehnatchan. Topqirlar guruhi o'z vazifalarini to'liq bajarish bilan birga yuqoridagi ikkinchi va uchinchi guruhlar yo'l qo'ygan xatolarni ham to'g'irladilar.

Yasama sifatlarni so'z qo'shish yo'li bilan ham hosil qilinadi.

Xatosi: mehnatchan; mehnatkash.

Uyga vazifa 339-mashq beriladi.

Gaplarni o'qing. Nuqtalar o'rniga quyidagi berilgan qo'shimchalarning mosini qo'yib ko'chiring.

Namuna: *Inson tabiatning eng ongli farzandi.* (Tohir Malik).

1. *Pastdagi bog'dan yumshoq nam'xus hazon hidi ko'tarilib uning xayollarini to'lin oy sehrlagan tog' vodiy daralariga olib ketardi.* (A.Muxtor).

2. *Oybek domla nihoyatda tiyraklik bilan ko'pchilik nomdor insonlarda juda kam uchraydigan samimiyat va bolalarcha beg'uborlik bilan opaning gaplarini tasdiqladi.* (A.Oripov).

3. *Bu o'lkada iqlim o'rtacha, suv mo'l, yer unumdor, quyosh nuri yetarli.* (G'.G'ulom).

4. *Ariqdan suv emas, o'ynoqi nur oqadi.* (A.Qahhor).

1.2. Sifat yasovchi qo'shimchalar va ularning imlosini o'tish.

O'quvchilar sifatlarning tub va yasama sifatlari haqida bilib olishdi. Navbatdagi mavzuda sifat yasovchi qo'shimchalar va ularning imlosida yasovchi qo'shimchalarning ba'zilariga to'xtalib qolmasdan ularning qanday ma'no anglatishini, ifodalashi haqida to'xtalib o'tiladi.

Sifat yasovchi qo'shimchalar va ularning imlosi haqida ma'lumot berishdan avval darslikda berilgan topshiriq o'qituvchi nazoratida bevosita o'quvchilar tomonidan bajariladi.

1-topshiriq. Berilgan so'zlarni tarkibiy qismlarga ajrating. Sifat yasovchi qo'shimchalarni aniqlang.

So'z tarkibi nima? So'z tarkibi asos va qo'shimchalardan iborat. Topshiriqda so'zlarning tarkibini aniqlash buyurilgan. O'quvchilarga so'zlarning tarkibi yuzasidan avvalo savol bilan murojaat qilinadi, ya'ni so'zning tarkibi qanday qismlardan iborat bo'lishi mumkin va ular qanday nomlanadi. O'quvchilar bilganlaricha javob qaytaradilar. Bordi-yu javob yetarli bo'lmasa o'qituvchi tomonidan ularning javoblariga tayangan holatda to'ldirilib umumlashtiriladi. So'z tarkibida asos (o'zak) qanday vazifani bajaradi? KulguG'li.

Misoldagi kulgu komponenti bu sifatning asosi sanalib otdan sifat yasovchi – li vositasida yangi so'z hosil bo'ldi. Bu o'rinda so'zning asosi tub bo'lib, unga bitta yasovchi qo'shimcha orqali yangi so'z hosil bo'ladi.

Agarda so'zning tarkibi ikki va undan ortiq qismdan iborat bo'lsa, asosni qanday aniqlash kerak. TejaG'mG'li bu o'rinda uch tarkibli so'z tahlil qilinayapti. Bu o'zagi teja –fe'li bo'lsada uning asosi tejam qismidir. Chunki, sifat yasama otdan hosil bo'lyapti, yoki tejamli so'zi tejam so'zidan yasalmoqda. So'z

tarkibining ana shunday nozik tomonlari haqida tushuncha berilgach sifat yasovchi qo‘shimchalar yuzasidan berilgan topshiriqlar bajariladi:

1-topshiriq.

Foydali, serharakat, go‘shtdor, tartibsiz, yasama, devoriy, noaniq, talabchan, odamsifat, bebaxt, yengilmas, basavlat.

Ushbu topshiriqni o‘quvchilar o‘z ixtiyori bilan doskaga chiqib topshiriq asosida to‘g‘ri va chiroyli yozishlari talab qilinib, galma-galdan bajarishib baholanadi. Doskada bajargan topshiriq daftarlariga ham ko‘chiriladi.

2-topshiriq.

Berilgan so‘zlarga *-li, -ser, -mand, -dor, -bo, -siz* qo‘shimchalarini qo‘shing. Ularning qanday ma’no ifodalashini ayting.

Shirali, go‘shtsiz, sersavlat, davlatmand.

Ushbu topshiriqni bajarishdan oldin doskaga topshiriq yoziladi. Shundan so‘ng eng birinchi bajargan beshta o‘quvchi taqdirlanadi. Topshiriq bajarish jarayonida o‘quvchilar nutqiy salohiyati yanada oshishi bilan birga sifat yasovchi qo‘shimchalar yordamida so‘z ma’nosi, har xil ma’no ifodalanishini yana bir bor xotirlashadi.

Yuqoridagi topshiriqni bajarish jarayonida sifat yasovchi qo‘shimchalar haqida hamda qanday ma’no ifodalanishini anglab yetdilar. O‘quvchilar bu haqdagi umumiy bilimlardan qoniqish hosil qilgach, darslikda berilgan nazariy ma’lumotni tushuntiramiz.

-li, -ser, -dor, -siz, -no, -chan, -ma, -iy (viy) kabi qo‘shimchalar sifat yasovchi qo‘shimchalar hisoblanadi.

-li, -dor, -ba, -ser, -mand qo‘shimchalari asosida ifodalangan belgiga egalikni bildiradi. Bu qo‘shimchalar (mand qo‘shimchasidan tashqari) asosda ifodalangan belgiga ega emaslikni bildiruvchi *-no, -siz, -be* qo‘shimchalari bilan zid ma’nolidir.

O‘quvchilarga nazariy ma’lumot tushuntirgach ularning qay darajada anglanganligini tekshirib ko‘rib bilimlarni mustahkamlash maqsadida 331-mashqni bajaramiz.

Gapni o'qing. Sifat yasovchi qo'shimchalarni aniqlang, imlosini tushuntiring. Bu mashqni bajarishda darsda qatnashmagan o'quvchilarimiz faol qatnashmadi. Gaplarni galma-gal o'qishib, doskaga va o'z daftarlariga yozib borishadi.

1. Yo'lning ikki betidagi qoramtir oq, qizil daraxtlarning tanga-tanga barglari iliq quyosh nuridan marvariddiyek tovlanadi. (O'.Umarbekov). 2. Uning chaqnoq ko'zlari, siyrak qoshi, o'ychan turishi katta bardoshni, sadoqatini, aqlini aks ettirib turadi. (Yo'ldosh Sulaymon). 3. G'iyos aka yumshoq ajriq ustiga yonboshladi. (N.Fozilov). 4. Mehmon degan unaqa sergap bo'lmaydi-dedi ayyorlarcha kulib, (S.Ahmad). 5. Bo'm-bo'sh otxonaning eshigi lang ochiq turar edi. (O'.Hoshimov). 6. Avaz dahlizdan rangdor vassali, sertokcha uyga kirdi. (P.Qodirov).

Mashq o'quvchilar tomonidan bajarilgandan keyin o'qituvchi tomonidan qo'shimcha savol qilib yasama sifatlarning imlosi so'raladi. Ya'ni yasama sifatlarning tarkibining imlosi qanday o'zgarish bo'lganligi so'raladi. O'quvchilar mashqda yasama sifatlarning miqdorini aytishadi. Va yasovchi qo'shimchalarning asosga qo'shilib yozilishini hamma o'quvchilar ham anglab yetolmasligi mumkin. Juda katta o'qituvchi o'quvchilarga qo'shimcha savol bilan murojaat qilib, yasama sifatlarning qaysilari qo'shimcha qo'shish natijasi tovush o'zgarishi sodir bo'lganini so'raydi.

Shundan keyin o'quvchilar yasama sifatlarni tarkibini aniqlashga tushadi va chaqnoq, yumshoq sifatlarga o'zgargan harflarni aniqlashadi. O'qituvchi o'quvchilardan bu tovushlardan o'zgariq sababini izohlatadi. Bordi-yu o'quvchilar qiynalishsa o'qituvchining o'zi bu fonetik jarayonni ya'ni til orqa keng unililarning qo'shiladigan qo'shimchalar harakteriga qarab o'rin almashi haqida ma'lumot beradi. Sayla, saylov, boshla-boshlov, ong-angla, sana-sanoq, hatla-hatlov, to'la-to'lov. Bu bilan birinchidan, o'qituvchilarga so'z tartibidan tushuncha bersak, ikkinchidan, o'quvchilarning fonetika haqidagi bilimlarini ham mustahkamlaymiz.

Shundan keyin o'quvchilarning yasama sifatlarni imlosidagi bilimlarni yanada mustahkamlash uchun 332-mashq bajartiriladi.

“Hikmatnoma” asaridan olingan gaplarni o‘qing. Nuqtalar o‘rniga sifat yasovchi qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, ularning imlosini tushuntiring.

Bu mashqni bajarishda tarqatma materiallardan foydalanamiz. Kartochkalarda bajarilishi kerak bo‘lgan gaplar aks etgan. Avvalo o‘quvchilarni uch guruhga bo‘lib olamiz. Guruh a‘zolarini doimgidek o‘yin shartlari bilan tanishtirib olamiz.

Buning uchun o‘quvchilarimiz qisqa vaqt ichida topshiriqlarini to‘g‘ri, tinchlik saqlab, guruh a‘zolari bir yoqadan bosh chiqarib bajarishlari talab etiladi. So‘ngra har bir guruh o‘zlariga topshirilgan gaplarni o‘qib, sifat yasovchi qo‘shimchalardan mosini nuqtalar o‘rniga qo‘yib imlosi tushuntiriladi, izohlanadi.

Birinchi guruh

1. Yoqimli do‘st suhbati olis yo‘lni yaqin qiladi.
2. Pokiza kishi hamisha shodlik ustida, gunohkor esa g‘am qayg‘u ostidadir.

Ikkinchi guruh.

1. Behayo odamlar bilan suhbatdosh bo‘lgandan ko‘ra yolg‘iz o‘tirgan afzal.
2. Rostgo‘ylik odobning ustuni, insoniylik asosidir.

Uchinchi guruh.

1. Do‘stsiz odamning mevasiz daraxtdan farqi yo‘q.
2. Sergaplik dushmaningdir chunki u sening aybingni ochib tashlaydi.

Guruhlar ichida ikkinchi guruh to‘g‘ri va tez bajarishgan. Qolgan guruhlar ham topshiriqni tez va to‘g‘ri bajargan.

Ikkala mashq bajarilgandan keyin an’anaviy tarzda sifat yasovchi qo‘shimchalarning imlosi yuzasidan savollar beriladi.

Savol

1. –iy, -viy qo‘shimchalarining imlosi haqida so‘zlab bering.
2. –q, -qi qo‘shimchalari qo‘shilishi natijasida o‘zakda qanday tovush o‘zgarishi ro‘y beradi?
3. –be, -no, -ser, -ba qo‘shimchalari ishtirokida so‘zlar yasang.

Uyga vazifa

Yaxshi ko‘rgan daraxtingizni tasvirlang. Unda yasama sifatdan foydalaning.

Namuna: Shaftoli daraxti. Buning barglari yashil. Sershoh daraxt. Mevasi (hosili) shirali. Hosili mo'1.

Namuna sifatida berilgan shaftoli daraxtining tavsifida 3 ta yasama sifat ishtirok etayapti. Ular 2 xil usul bilan yasalgan. 2 tasiga sifat yasovchi –li (shirali, hosilli). Bittasiga old qo'shimchasi ser – (sershoh) qo'shimchalar qo'shib yasalmogda. O'quvchilar o'zlari tuzib kelgan matnlarni o'qib, ulardagi yasama sifatlarni izohlashadi. Uyga vazifa so'ralgandan so'ng sifat yasovchi qo'shimchalar va ularning imlosi yanada mustahkamlanadi

Sifatlarning yasalishiga bag'ishlangan 1-mashg'ulotda sifat yasovchi qo'shimchalarni biror belgiga egalilik yoki ega emaslik ma'nolarini anglatishi haqida to'xtalgan edik.

Navbatdagi mashg'ulotda sifat yasovchi qo'shimchalarning boshqa turi payt, o'rin, o'xshashlik kabi ma'nolarni anglatuvchi yasama sifatlarning haqida fikr yuritiladi. Shuni ham aytish kerakki, an'anaviy dasturda sifatlarning semantik tasavvuri haqida bilim berish kiritilmagan edi. O'quvchi tafakkuri rivojini hisobga olgan holda uzviylashtirilgan dastur asosi yaratilgan darsliklarda yasama sifatlarning semantik nozikliklargacha hisobga olinib ularning payt, o'rin, o'xshashlik, xoslik, belgilarni bildiruvchi ma'no guruhlarni ham o'quvchilarga o'rgatish kiritilgan.

Shu maqsaddan kelib chiqib darslikda berilgan 3-topshiriqni bajaramiz. Bu topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchilardan chaqqonlik, zukkolik, faollik, diqqat e'tibor talab etiladi. Topshiriqni o'quvchilar avval o'z daftarlariga so'ngra esa birgalashib, doskaga bajarishni buyuramiz.

Birinchi to'g'ri bajargan o'quvchilar taqdirlanishadi.

Berilgan so'zlarni tarkibiy qismlarga ajrating. Yasovchi qo'shimchalarni aniqlang va ularning ma'nosini ayting.

Kuzgi, gulsimon, devoriy, qishki, ilmiy. Berilgan sifatlarning hammasi otlardan yasalgan bo'lib, kuzgi, qishki, payt ma'noli belgini bildiradi. Gulsimon – o'xshashlik ma'nosini bildiradi. Devoriy ilmiy so'zlarda xoslikni bildiruvchi belgini ifodalaydi.

Yuqoridagi topshiriqni bajarish jarayonida o‘quvchilar sifat yasovchi qo‘shimchalar va ularning imlosi haqida anglab yetdilar.

O‘quvchilarning bu haqida umumiy bilimlardan qoniqish hosil qilgach, darslikda berilgan nazariy ma’lumotni tushuntiramiz.

-gi (-ki, -qi) qo‘shimchasi payt va o‘rin bildiruvchi otlarga qo‘shilib, payt va o‘ringa xos belgini,

-simon qo‘shimchasi o‘xshashlik belgisini,

-viy qo‘shimchasi xoslik belgisini bildiruvchi sifatlar yasaydi. O‘quvchilarga nazariy ma’lumot tushuntirilgach, ularning qay darajada anglashilganligini tekshirib ko‘rib bilimlarini yanada mustahkamlash maqsadida 334-mashqni bajaramiz.

1) Kuzgi hosil mo‘l bo‘lsa, el farovon yashaydi. (payt).

2) Kechki ovqat mahali barcha oila a‘zolari dasturxon atrofiga jamlandi. (payt).

1) Odamsimon maymunlar sonini ko‘paytirish borasida ko‘plab izlanishlar olib borilmoqda.

2) Sayroqi qushlar elimizning tinchligidan darak berib turadi.

3) Tarbiyaviy ishlar barcha mustahkam oilaning poydevori asosidir.

4) Devoriy soat millari bugungi kun yakunidan darak berib turardi.

Gaplarni o‘qing, sifatlarni toping, -gi, -ki, -qi qo‘shimchalarining aytilishi va yozilishiga diqqat qiling. Bu mashqni bajarishda o‘quvchilarimizni dars davomida zerikib qolmasliklari va diqqatlarini darsga tortish maqsadida “3 x 3” texnologiyasining qoidalaridan foydalanamiz. Ushbu usul hamkorlikdagi faoliyat bo‘lib, o‘quvchilarni muammoli savol, topshiriq ustida fikrlashga, bir necha javob variantlarini shakllantirish va muayyan shaklda ifodalashga yo‘naltiriladi.

O‘quvchilar uch kishilik guruhlariga bo‘linadilar.

Ular o‘zlariga topshirilgan gaplarni ifodali o‘qib, sifatlarni topishi va qo‘shimchalarini aytilishi va yozilishiga diqqati tortiladi. O‘quvchilar gaplardagi sifatlarni hamda yasovchi qo‘shimchalar aytilishi va yozilishiga to‘xtalib o‘tadilar.

Uchta guruhga 2 tadan gap beriladi.

Birinchi guruh a'zolariga

- 1) *Kechki payt hujrada Boburning yolg'iz o'zi o'tirar edi. (P.Qodirov).*
- 2) *Daryoga doimiy ravishda irmoqdar kelib qo'shilib turilmasa, uning oqimi jo'shqin bo'la olmaydi. (J. Boltayeva).*

Ikkinchi guruh a'zolariga

- 1) *Shahzodaning dilini mayus, ammo har kungi mudhish tuyg'ularga o'xshamagan, allaqanday pokiza tuyg'ular qamrab oldi. (O.Yoqubov).*
- 2) *Dastlabki kunlar yo'l unchalik mashaqqatli bo'lmadi. (M.Osim).*

Uchinchi guruh a'zolariga

- 1) *Bu o'rmonda odamsimon maymunlar yashaydi. (Ertakdan).*
- 2) *Tashqi ishlar vazirligi bayonot berdi.*

Javoblar

Birinchi guruh a'zolari kechki –ki qo'shimchasi payt bildiruvchi otlarga qo'shilib paytga xos belgini bildiradi. Ikkinchi gapda esa yasovchi qo'shimcha berilmagan.

Ikkinchi guruh a'zolari: Birinchi gapda sifat yasovchi qo'shimcha berilmagan.

Ikkinchi gapda dastlabki –ki qo'shimchasi bildiruvchi otlarga qo'shilib paytga xos belgini bildiradi.

Uchinchi guruh. Odamsimon –simon o'xshashlik ma'nosini ifodalaydi. Ushbu gapda maymunlarning odamlarga o'xshashligi ta'kidlangan. Ikkinchi gapda tashqi –qi qo'shimchasi o'rin bildiruvchi otlarga qo'shilib o'ringa xos belgini bildiradi.

Endi uchta guruhning a'zolari bajargan topshiriqlarni tekshirib ko'rish uchun har bir guruhga doskani uchga bo'lib. Guruh vakillari doskaga javoblarini yozishadi va birgalashib tekshiramiz. Ikkinchi gap doimiy xoslik belgisini bildiradi. Bittasi to'g'ri. Ikkinchi guruh kungi –gi payt bildiruvchi sifat yasovchi qolib ketgan.

Uchinchi guruh javoblari to'liq. To'g'ri. Bu guruhni g'oliblikni qo'lga kiritganligi bilan barchamiz tabriklaymiz.

Mashq o'quvchilar tomonidan bajarilgandan so'ng sifat yasovchi qo'shimchalarning o'rin, payt, xoslik, o'xshashlik kabi ma'nolari ifodalanishini ham bilib olish orqali yanada bilimlari mustahkamlandi. Shu bilan birga birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar, deganlaridek birgalashib, bilimlariga tayangan guruh a'zolari mashqni a'lo darajada bajarishdi.

Mana uchta guruhning ham javoblari o'qib eshittirilgach, ularga yana qo'shimcha izohlari bo'lsa tinglaymiz. Birinchi gapdagi kechki sifatini ko'rib o'tsak unda kech ya'ni payt ravishi kechki qo'shimchasini olib o'zgarayapti. Sifatga bunda qo'shimcha qo'shilish tartib qoidasiga bo'ysungan holda ya'ni jarangsiz undosh bilan tugagan o'zakka jarangsiz undosh bilan boshlanuvchi qo'shimcha qo'shiladi. Barcha javoblarni umumlashtirib ham bo'ldik. Xulosa ham chiqardik.

Hayotda ham o'qishda har qanday sohada bo'lmasin omad muhim ro'l o'ynaydi. Omadning kaliti bilimdir. Bilim esa tinmay izlanish, o'qish-uqishni, o'z ustida ishlashni talab etadi.

O'quvchilarimiz ushbu mashqni bajarish davomida ularning nutqlari o'sishiga ijobiy ta'sir etishi bilan birga sifat yasovchi –gi, -ki, -qi qo'shimchalari aytilishi, ya'ni talaffuziga ham orfografiyasiga ham diqqatlarini qaratib oz bo'lsada bilimlarini boyitishga erishishdi. Keyingi mashq ham o'quvchilar zukkoligini, bilimlarini yanada mustahkamlashga o'z hissasini qo'shadi. Ushbu mashq o'quvchilarimiz –iy, -viy, -simon qo'shimchalari imlosiga e'tibor qaratiladi.

335-mashq

Nuqtalar o'rniga –iy, -viy, -simon qo'shimchalardan mosini qo'ying, imlosini tushuntiring.

Bu mashqni bajarishda o'quvchilarni ikki guruhga bo'lib olinadi. Bo'lganimizdan so'ng ularga bittadan tarqatma material bo'lib beramiz. Ularning orqasidagi tasvir tushirilgan o'shani bo'laklarga bo'lingani uchun ularni tersangiz unda nimaning tasviri tushurilgan? So'ngra orqa tomonida ikkidan gap berilgan o'sha yuqoridagi shart, topshiriq asosida bajarish talab qilinadi. Buning uchun

o'quvchilar topshiriqni bajarishlaridan oldin tinchlik saqlashni chaqqonlik, zukkolik o'z bilimlariga tayanishlari talab etiladi.

Shundagina o'sha guruh o'quvchilar g'oliblikni qo'lga kiritadi.

1. Birinchi guruh Boychechak
2. Ikkinchi guruh esa Bahor deb nomlandi.

1. Boychechak guruhi a'zolariga berilgan topshiriqni tezlikda zukkolik bilan nuqtalar o'rniga ham qo'shimchalardan mosini qo'yib bizga noma'lum bo'lgan tasvirni ham aytib berishdi.

1. Mening tug'ilib o'sgan, bolaligim o'tgan joylar Qarshi (Qadimi yNasaf) shahridan besh o'n chaqirim Shimolroq tomondagi Qo'ng'iztov etaklaridir. (A.Oripov).

2. Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish uchun xalq mafkuraviy jihatidan qurollangan bo'lmog'i kerak. (S.Olimov).

2. Bahor guruhi a'zolari tasvirni ya'ni rasmni birlashtirishga ko'p vaqt sarflashdi. Shuning uchun ham orqasidagi topshiriqni bajarishga vaqtlari oz qoldi. Birgalikda harakat qilmaganligi uchun ham g'oliblikni qo'ldan boy berdi.

Endi ular bajargan topshiriqni ko'rib o'tamiz.

Osmon tip-tiniq, oyning kumushsimon tumanli nuriga cho'mgan yulduzlar siyrak edi. (O'.Hoshimov).

2. Ayniqsa, Nasriddin Afandining quvnoq sarguzashtlari bilan tanishish uning tabiatiga xos hajviy mayllarga turtki berdi. (N.Karimov).

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek topshiriq to'g'ri bajarilgan, lekin, ozgina kechroq bajarishdi. Shuning uchun ularni g'olib deb e'lon qila olmaymiz. Endi hammamiz birgalashib gaplarni doskadan daftarlarimizga ko'chirib olamiz. Chiroyli qilib, bo'yamasdan, xatoga yo'l qo'yimaslik talab etiladi. Boychechak guruhini yana bir bor bugungi g'olibligi bilan tabriklaymiz. Ularga doim shunday faollik, bilimdonlik, birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar deganlaridek ularga omadlar tilab qolamiz.

Hamma yozib bo'lgan bo'lsa endi darsimizda bahosi yo'q, darsga faol qatnasholmagan o'quvchilarni uch nafarini taklif etamiz.

Ular mana shu daraxtga ilingan mevalar orqasida savol va topshiriqlar berilgan. Eng muhimi yana “5” a’lo baho ham bor uni olsa o‘z-o‘zidan besh baho qo‘yiladi. Endi yomon tomoni meva orqasidan hych narsa chiqmasa joylaringizga borib o‘tirasiz, o‘rningizga boshqa o‘quvchi chiqib meva oladi va u baholanadi.

-iy, -viy qo‘shimchalarining ishlatilish o‘rinlari haqida gapiring.

U asosan xoslik belgisini bildiradi. Unli va undosh bilan tugashiga ko‘ra –iy yoki –viy qo‘shimchasi qo‘shiladi.

-gi, -ki, -qi qo‘shimchasi va ularning imlosi haqida gapiring.

-gi, (-ki, -qi) qo‘shimchalari payt va o‘rin bildiruvchi otlarga qo‘shilib, payt va o‘ringa xos belgini bildiruvchi sifatlar yasaydi.

-simon qo‘shimchasi yordamida so‘zlar yasang.

-odamsimon, yulduzsimon, osmonsimon.

Topshiriqni bajarish jarayonida sifat yasovchi qo‘shimcha aniqlab izlanib topishga ular imlosiga talaffuziga ularning ma’nosiga e’tiborlari tortildi. Sifat yasovchi qo‘shimchalar haqida oz bo‘lsada bilimlariga bilim qo‘shildi. Uyga berilgan vazifalarini bajarish orqali bilimlari yanada ko‘paytirib, mustahkamlanadi. Hamda o‘zlari ishonch tuyg‘usi xissi hosil bo‘ladi.

Uyga vazifa

So‘zlarni qiyoslang. Yasama sifatlarni otlardan farqlab, daftaringizga ko‘chiring.

Namuna: Sayroqi –tutatqi, sayroqi. Qanday? –tutaqi-nima?

Oqshomgi –qanday? Sezgi nima. Kechki –qanday, tepki-nima? Erinchoq –qanday? O‘yinchoq-nima? Chizg‘ich-nima? Yolg‘ich-qanday, yoshlik-nima, aybdor-qanday? Mulkdor-kim? Yashirin-qanday? Bo‘g‘in-nima? Yasama-qanday? Bostirma-nima?

Uyga berilgan topshiriqni sifat bilan ot juftlar berilgan xarakterli tomonini chunki hamma juftlarning yasovchisi bir xil (sayroqi -tutatqi) bu juftlikdagi, -qi qo‘shimchasi bir o‘rinda sifat yasaydi. Bir o‘rinda ot yasaydi ikkalasi ham fel asosiga qo‘shilgan. Bu bidan qo‘shimchalardagi omonimik xususiyatni o‘quvchilar yetadilar. Demak, bu topshiriqni bajarish orqali bo‘limlar aro aloqa o‘rnatiladi.

II BOB. BOSHLANG'ICH SINFLARDA SIFATNING MA'NOVIY GURUHLARIGA BO'LIB O'RGATISHGA DOIR.

2.1. Boshlang'ich sinflarda sifatning ma'noviy guruhlarini o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan hamda turli xil metodlardan foydalanish.

Xarakter-xususiyat, xossa bildiruvchi sifatlar. Bunday sifatlar, ayniqsa inson xarakter-xususiyatini ifodalab kelgan so'zlar tilda juda ko'p qo'llanadi: *yaxshi, badjahl, yoqimtoy, muloyim, ziyrak, mahmadona, dilkash* va h.k

Bulardan bir turkumi inson, predmet va hayvonlarning xarak-ter-xususiyatini ifodalashda umumiy qo'llanadi, bir turkumi qsa faqat inson xarakteri yoki predmet xossasini ifodalashga

xos bo'lib qolgan,

Xarakter-xususiyatlar, xossalar ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra, bunday sifatlar ijobiy va salbiy mazmun-ga ega. Bulardan tashqari, ijobiy ham, salbiy ham bo'lmagan (loqayd mazmunli) sifatlar mavjud.

1. Insonning xarakter-xususiyatiga xos: a) ijobiy sifatlar: *muloyim, odobli, chapdast, chaqqon, abjir, ziyrak, mo'min, sodiq, yuvosh, mohir, pok, sipo, o'ktam, (kamtarin), asl, quvnoq; ozoda, sof, yaxshi, dadil, xushmuomala, rostgo'y, mehribon,* va b.;

b) kishiga xos salbiy xarakter-xususiyatlarni bildiruvchi sifatlar ko'pincha ijobiy xarakter-xususiyatlarni bildiruvchn sifatlarga antonim sifatida qo'llanadi, ya'ni bu grupp sifatlar kishilarning yoqimsiz, yaramas xususiyatlarini ifoda etadi: *zolim, nokas, toshbag'ir, shafqatsiz, quv, ayyor. muttaham, rasvo, ablah, dog'uli, uquvsiz, g'ayir, tannoz, tamanno, takabbur, qabih, munofiq, olchoq., zukko, qo'rs, to'ng, mug'ombir. injiq, o'jar, lavang, o'noq, ishyoqmas, sulloh, galamis, xudbin, g'alcha, ikkshozla-michi* va b.

Kishilarga xos ijobiy yoki salbiy xususiyatlar uning gap-so'zini, o'y-niyatini, yoki tana a'zolarndan birini sifatlash orqali ham beriladi; Bunday sifatlar kishi bilan bog'langan holda yoki o'zi alohida bo'lishi mumkin: *Ularning pok, nozik*

hislarini oyoq, osti qilgansiz (A. Muxtor). .. qalbining ezgu hislarini bir-ikkp qisqa so'zlar bilan aytib qo'yar edi (Oybek). Uning so'zlari bololarcha sodda, samimiy, lekin aniq va ravshan edi (Oybek). U ezgu tilakli, sof ko'ngil kishi. Jamila soddadil ayol. U sodda so'zlari, yurak otasha, oqilona boqishlari bilan, .. mehnatkashlar sinfiyai kurashga chaqiradi (Oybek). Qaeqdandir quvnoq kulgi eshitildi (A. Muxtor). ...Qizning sofdilligi.. menda yashirinib yotgan eng pok tuyg'ularni yuzaga chiqargan edi (P. Qodirov). Ya x sh i gap bilan ilon inidan chiqadi deganlari rost ekan («Mushtum»).

Qo'li ochiq odam, ochiq ko'ngil kishi, tili shirin ayol, ko'ngli to'g'ri odam, qo'li egri, tili achchiq, nafsi buzug kabilar ham xuddi shunday.

Kishi xarakter-xususiyatini berishda yuqorida zikr etilgan sifatlardan tashqari boshqa turkumdagi (holat, shakl, maza-ta'm, rang-tus bildiruvchi) sifatlardan ham foydalanadi. Bunday sifatlovchilar orqali ham kishilarga xos turli xarakter-xususiyatlar ochiladi:

Bir qaradi, ko'zi yomon o'tkir ekan., jonim chiqib ketayoedi («O'zbek xalq dostonlari»). U *sarbast, ziyrak, harakatlari dadil, so'zlari o'tkir, o'rtoqlari orasida onaboshi kiz (Oybek);*

v) kishi xarakter-xususiyatiga oid yana shunday sifatlar borki, ularning ma'nosidan ijobiylik yoki salbiylik yaqqol bo'rtib turmaydi. Nutq momentiga qarab ular har ikkala chegara-siga ham o'tib olishi mumkin. Masalan: *dovdir, loqayd, sho'x, mahmadona, sinchkov, mag'rur, indamas, o'jar, shaddod, to'pori, o'tkir va b.: Gulchehra sal engiltak va sho'x bo'lsada o'zi j u da ... m e h r- oqibatli qiz (O. Yoqubov).*

2. Predmet (narsa, hayvon, jonivor), holat, hodisa va shu kabilarning xarakter-xususiyatini ifodalash uchun qo'llanuvchi sifatlar: *xonaki, dolzarb, dabdabali, tashvishli, asov, chopong'ich, sun'iy, tabiiy, tekin, qimmat, arzon* kabi.

3. Kishi va predmet xususiyatlari uchun birdek qo'llanaveradigan sifatlar: *ajoyib, yaxshi, yomon, zo'r, chidamli* va b.

Ba'zi sifatlar esa, yo kishi, yoki predmet belgisi uchun ko'chganma'noda qo'llanishi mumkin: *engil, og'ir, dag'al, dardisar, bachkana, rasvo, qaysar, xira, uchar* va b.

Holat bildiruvchi sifatlar. Predmet, hodisaga, inson va hayvonga xos holat yoki vaziyat turli sifatlar orqali ifodalanishi mumkin:

1) tabiiy holat belgilari, a) ijobiy ma'noda: *go'zal, ko'hlik, chiroyli, suluv, latif, qomatdor* va b.; b) nuqsoniy belgilar: *cho'loq, mayib, maymoq, bukir, cho'tir, soqov, xunuk, g'ilay, kar, pes, ko'r, qiyshiq* va b.

Qayd etilgan sifatlarning ayrimlari hayvon va predmetlarning belgisi uchun ham qo'llanaverishi mumkin: O'sha *mayib turna cholning qo'lida shifo topib yana o'z karvoniga qo'shilganini bilarmikin* (Said Ahmad). *Juda xunuk ish bo'пти («Mushtum»)*.

2) Jismoniy yoki fizik holatlarni ifodalovchi sifatlar: *bardam, baquvvat, tetik, yosh, keksa, qari, ojiz, zaif* va b. Bunday sifatlar predmet belgilari uchun ham qo'llana oladi: *Oqsoqol hovliga, keksa tut shoxlari engashib turgan tunuka tomga suqlanib birma-bir qarab chiqdi.* (Said Ahmad). *Nayda chalingan ojiz navo esa, .. bir cho'pon boladay chinqirib nola qilar edi!* (A.uxtor).

3) Ruxi holatni ifodalovchi sifatlar: *xursand, xafa, jinni, sog', sergak, xushyor, g'azabnok, darg'azab tajang, kindor, ma'yus, g'amgin, alamdiyda, alamzada* va b.

4) Kishining hayotiy holatini, axvolini ifodalovchi sifatlar: *boy, badavlat, kambag'al, kashshoq, yo'qsil, gado, etim. mushfiq, bechora, musofir* va b.

5) Predmetning xarorat belgisini ifodalovchi sifatlar: *issiq. so Buq, iliq, salqin, ilmiliq, (iliq-miliq)* kabi.

b) Tozalik, ifloslik holatlarini ifodalovchi sifatlar: *toza, ozoda, sof, musaffo, saxtiyon, kir, isqird, irkit* va b.

7) Predmetning eskilik, yangilik holatlarini ifodalovchi sifatlar: *yangi, eski, churuk, uvada, juldur* va b.

8) Predmetning pishgan yoki xomlik holatlarini ifodalovchi sifatlar: *xom, g'o'r, dumbol, pishgan, pishiq* kabi.

9) Predmetning ho'l-quruklik holatini ifodalovchi sifatlar: *ho'l, nam, namxush, namtob, quruq, qoq, qoquruq, shilta, shalabbo* va b.

10) Tinch va notinch holatlarni ifodalovchi sifatlar: *tinch, jim, jim-jit, sokin, osuda, osoyishta, notinch, betinch, bezovta* va b.

Shuningdek, *silliq, g'adir-budir, g'ijim, tekis, siyrak, zich, qalin, yupqa, omonat, puxta, g'uj, sho Bul, tanho, gavjum, ochiq, berk* kabi sifatlar ham turli holatlarni ifodalab keladi.

Yuqorida keltirilgan holat bildiruvchi sifatlarning deyarlihammasi darajalanadi, forma o'zgartuvchi affikslarni qabul qiladi va ko'pchiligi ko'chgan ma'nolarda qo'llanadi.

Qaysi guruh tez bajarsa o'sha guruh a'zolari rag'batlantiriladi.

Birinchi guruh.

1. *Samrig aka ellikdan oshgan, tarvuzdek yum-yumaloq, hazilkash, shirinso'z odam. (E.Usmonov).*

Shirinso'z inson mushkulini osonlashtiradi.

2. *O'zbek xalqi mehmondo'st xalq. (K.Xolmuhammedov).*

Mehmondo'stlik yetuk insonlargagina berilgan xislatdir.

Ikkinchi guruh

1. *Ko'z oldimdan ichakuzdi qiliqlar qilayotgan qiziqchilar, toshlarni osmonga irg'itib o'ynayotgan polvonlar ketmasdi. (J.G'oziyev).*

Ichakuzdi hazillar, latifalar inson sog'ligining garovidir.

2. *Osmono'par koshonalar, yangi libos kiygan cho'l-u, sahrolar tasviri qo'shiq parvozigaga esh bo'ladi. (Otayor).*

Diyorimizda osmono'par binolar, inshoatlar qad ko'tarmoqda.

Ushbu yuqoridagi mashqni bajarish jarayonida o'quvchilarning og'zaki nutq boyishi bilan birga, ularning mustaqil ravishda gaplar tuzish, matn ichidan sifatning ma'noviy guruhlarini topishadi, ko'nikma va malaka hosil qilishadi. Shuning bilan birga o'quvchilar bilimini yanada boyitadi. Ularning bilimini yanada mustahkamlash maqsadida o'quvchilarga darslikdagi savollar bilan murojaat qilinadi.

Bu usulda o'quvchilarning xushyorligini oshiradi, hamda mavzuni qay darajada o'zlashtirganligini aniqlashga yordam beradi. Tez va to'g'ri bajargan o'quvchilar rag'batlantirilib baholanadi.

Uyga vazifa. Xarakter-xususiyat, xossa bildiruvchi sifatlar topib, izohlang.

1. *Shirinsuxan, oqko'ngil insonlar mevali daraxtga o'xshaydi: hamma ulardan baho oladi.*
2. *Nodon, kaltafahm odamdan yaxshi gap chiqmaydi.*
3. *Mehnatsevar, zahmatkash insonlar odamlarning ko'rki, ishyoqmaslar esa ularning og'riq joyidir.*
4. *Toshbag'ir odamdan yaxshilik kutma.*
5. *Sofdil va jonkuyar insonlar bilan bu dunyo oboddir.*
6. *Balandparvoz, quruq gapirgan odamning gapi bemaza qovunga o'xshaydi.*

Uyga berilgan topshiriqni bajarish davomida **xarakter-xususiyat, xossa bildiruvchi sifatlar** o'quvchilar topishi bilan birga ular izohiga ham to'xtaladi.

O'quvchilar o'z bilimlarini uyga berilgan vazifani bajarish orqali yanada boyitadi.

Rang-tus bildiruvchi sifatlar. Predmetning belgi xususiyat-laridan biri rang-tusdir. Bir turkum sifatlar predmetning ana shu belgisini ifodalash uchun qo'llanadi: *oq, qizil, qora, ko'k, yashil, MALLA* va b.

Ma'lumki, tabiat rang va buyoqlarga nihoyatda boy, rang turlarining hisobiga etib bo'lmaydi. Lekin lug'at boyligidagi rang atamalari, ya'ni rang ifodalovchi maxsus so'zlar rang-tuslarning hammasini atash uchun etarli emas. Buning uchun tilda ko'pincha predmet nomlari yoki ot orqali yasalgan yasama, qo'shma, birikmali rang bildiruvchi sifatlardan unumli foydalaniladi: *barikaram (bargi karam), gulsafsar, mosh rang, tillarang gunafsha rang, shaftoli guli, qovoq rang, firuza rang* va b.

Ot tuslarini ifodalash uchun tilda maxsus so'zlar qo'llanadi: *saman, to'riq, chovkar, jiyron, bo'zto'riq* kabi.

Shakl-ko'rinish bildiruvchi sifatlar. Bunday sifatlar orqali predmetning turli shakl-ko'rinishlari, ichki va tashqi forma-lari ifodalanadi: *dumaloq, yassi, o'zunchoq, qiyshiq, to'garak, do'ng* va b.

Shakl-ko'rinish bildiruvchi sifatlar bilan holat bildiruvchi sifatlar ba'zan mos kelishi mumkin: *semiz, ozg'in, pachiq, bukir* kabi. U *oriqqina bo'lsa ham qo'li, boldirlari tiqmachiq, uzunchoqroq yonoqlari ham yapaloqroq, «8» rakamiga o'xshab ke-tadigan lablari ham etuk qizlarga xos bo'liq tirsillama* (A. Muxtor).

O'quvchilarga nazariy ma'lumot tushuntirilgach sinov tariqasida bir necha savol beriladi. Qoniqarli javob olingach, ularning buni qay darajada o'zlashtirganligini aniqlash hamda uni mustahkamlash maqsadida mashq bajariramiz. Gaplarni o'qing. Sifatlarni topib, ularni izohlang. Ushbu mashqni bajarishda 6 x 6 x 6 metodidan foydalaniladi. Bu guruhning har bir a'zosini faollik, o'z fikrini ifoda etish, guruhdoshlarining fikrini tinglash va tanlay olish, o'rta tashlangan bir necha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, o'z fikrini himoya qilishga o'rgatadi. Ushbu metodda 5,6,7,8 nafar o'quvchidan iborat bo'lishi mumkin. 6 tadan qo'yilgan stulga o'quvchilar joylashib olib, bo'linadi. Mashqdagi gap o'qiladi. Shakl-ko'rinish sifatlarini topib, ular izohlanadi guruh a'zolari maslahatlashib javoblarini guruh sardori yozib, javobini eshittiradi. Birinchi va to'g'ri, chiroyli yozib bo'lgan guruh har bir a'zosi rag'batlantirilib, baholanadi.

1. *Kasbning katta-kichigi bo'lmaydi. (M.Oripova). Katta-kichik zid ma'noli, ma'no umumlashgan.*
2. *Shu payt toshdan tushib kelayotgan sarg'ish-qo'ng'ir ayiqning bahaybat gavdasi ko'rinib qoldi. (P.Qodirov). Sarg'ish-qo'ng'ir o'zaro yaqin ma'noli, ikki asosning juft kelishidan hosil bo'lgan sifat.*
3. *G'ir-g'ir shaboda turli-tuman giyohlarning hidlarini olib keldi. (Oybek). Turli-tuman o'zaro yaqin, ikki asosning juft kelishidan hosil bo'lgan sifat.*
4. *Baland-past devorlar orasidagi mevalarning oq, pushti, qizil guliga tabassum bilan qaraysan. (O'.Umarbekov). Baland-past o'zaro zid ma'noli ikki asosning juft kelishidan hosil bo'lgan.*

Yuqoridagi mashqda shakl-ko'rinish sifat topib izohlash bilimlari tekshirilib ko'rilsa quyidagi mashqda esa nuqtalar o'rniga berilgan so'zlarning mosini qo'yib juft sifat yasash bilimi tekshiriladi. Dastlab orqa partada o'tirgan o'quvchilar bitta-bitta gaplarni ifodali o'qib berishadi. Mashqni yana guruh bo'lib bajariladi. Uchta qatorda joylashgan partalarga qarab o'quvchilarni 3-guruhga bo'lib olamiz. Hamma bir kishi uchun, bir kishi hamma uchun tamoyiliga amal qilib, qaysi qator to'lib mashq topshiriq asosida jamoada hamjihatlik o'quvchilarda inoqlik bilganlarini tortinmasdan aytish ko'nikmasi shakllana boradi.

Bexato va to'g'ri, tez bajargan guruh a'zosi taqdirlanadi.

1. *Shoshilish, yengil –yelpi ishlarga havas, jahldorlik-nodonlar ishi.*
2. *Goho-goho keladigan uzuq –yuluq xabardan boshqa aloqa yo'q. (O.Yoqubov).*
3. *Sehrli qalpoq axtarib eski-tuski kiyim-boshlar tashlanadigan burchak-surchaklarni tintuv qilib yurgan edim. (X.To'xtaboyev).*
4. *Mayda-chuyda narsalar tugilgan ro'molni ko'tarib qorovulxonaga kirdi. (N.Yoqubov).*
5. *Mahallaning qora-qura bolalari shoxdan-shoxga tirmashadi. (O'.Hoshimov).*

Uyga vazifa.

Gaplarni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga izoh bering. Ular ishtirokida gaplar tuzing. Namuna: Esli-hushli yoshlar yurtimiz ravnaqiga hissasi beqiyosdir.

2. *G'adir-budir past-balandliklar tekislanib ulkan binolar qad ko'tarmoqda.*
3. *Arzon-garov o'yinchoqlar o'zimizda ishlab chiqiladi.*
4. *Bu yilgi yog'ingarchilik o'ydim-chuqur yo'llarni ko'payishiga sabab bo'ldi.*
5. *Alg'ov-dalg'ov ishlar chek-chegarasi yo'q edi.*
6. *Kech kirib, yakkam-dukkam quyoshning nuri qolgan edi.*

Uyga berilgan topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchilarning juft sifatlar haqida bilimi boyishi bilan birga ularning ham og'zaki ham yozma nutqning rivojiga katta hissasini qo'shiladi.

Hajm-o'lchov-masofa bildiruvchi sifatlar. Bunday sifatlar predmetning hajmi, o'lchovi, miqdori kabi belgilarini ifoda etadi: *keng, tor, uzun, chuqur, chog', yirik* va b. Bu sifatlar ayrim tomonlari bilan shakl va holat bildiruvchi sifatlarga o'xshab ketadi: *Qeng dala,.. hamma yoq lolalardan libos kiygan* (Sh. R a sh i do v). *Ummatali yukni orqalab, katta ko'cha tomonga yurdi* (Shuhrat). *Qatakday kichik, er bag'irlagan qing'ir qiyshiq. xarob uylarda rus ishchilari yashaydi* (O y b e k). *B i z olis, begona, notanish sohillar sari yo'l oldik.*

O'qing. **Hajm-o'lchov-masofa bildiruvchi sifatlar** topib, ularning ma'nolarini tushuntiring. O'quvchilarni uch guruhga bo'lib olamiz. Og'zaki ravishda ushbu mashqni bajartiramiz. Har bir guruh darslikda berilgan mashqni o'z a'zolari bilan maslahatlashib birinchi to'g'ri bajargan guruh g'olib sanaladi hamda taqdirlanadi. Uch guruh ham belgilangan mashqni bajargandan so'ng guruh sardorlari javoblarini uch bo'lakka bo'lingan doskaga yozishadi. Javoblar jamoa bo'lib tekshiriladi. Xatolikka yo'l qo'ymagan guruh taqdirlanadi.

1. *O'z onamni elas-elas xotirlayman. Ko'zlari qop-qora chiroyli. Uzun-uzun kipriklari qilt etmaydi. (O'.Hoshimov). Elas-elas, takroriy so'z ma'no ta'kidlanayapti, uzun-uzun bir asosning aynan takrorlanishidan hosil bo'lgan ma'no kuchaytiraypti.*

2. *Qishloq obod bo'lsa katta-katta ko'chalar tushsa, kim qarshilik qiladi. (O'.Umarbekov). Katta-katta bir asosning aynan takroridan hosil bo'lgan takroriy sifat. Takroriy sifat belgini kuchaytirishga xizmat qilyapti.*

3. *Kimdir yelpib-yelpib, barra-barra go'shtlardan kabob pishiryapti. Yelpib-yelpib, barra-barra bir asosning aynan takroridan hosil bo'lgan sifat. Takroriy sifat belgini kuchaytirishga xizmat qilyapti.*

4. *Yangi-yangi ariqlar kavlab, ariqlar ochamiz. (A.Muxtor). Yangi-yangi bir asosning aynan takroridan hosil bo'lgan sifat. Takroriy sifat belgini ta'kidlaydi.*

Mashqni bajarish davomida o'quvchilar nafaqat jamoa bo'lib balki yakka mustaqil tanqidiy fikrlashga, mavjud bilimidan foydalanib, jamoaga o'z fikrini bildirishga, ta'sir etishga hamda fikrini qisqa va lo'nda ifodalashga o'rgatadi.

Maza-ta'm bildiruvchi sifatlar. Bu tur sifatlar predmetga xos xususiyatlardan biri bo'lgan maza-ta'mni ifodalashga xizmat etadi: *U xuddi nordon olma egandek yuzlarini burishtirdi* (Sh. Rashidov). *Sho'r ko'l m ak ichaverib Tursunboy choy ta'mini unutayozgan edi* (Said A h m a d).

Maza-ta'mni ifodalash uchun ot turkumidagi so'zlardan ham foydalaniladi: *shakar, novvot, nomakob, suv, zahar, miya, kakra (G'G'qaxra)* kabi.

O'quvchilarning **maza-ta'm bildiruvchi sifatlar** bilan so'z birikmalari tuzish malakasi shakllangach, takroriy sifatning anglatgan ma'nolarini izohlash ko'nikmasini hosil qilish uchun mashq bajartiriladi. Gaplarni ko'chiring. **Maza-ta'm bildiruvchi sifat**larni topib izohlab bering. Mashqni bajarishda musobaqa tarzda o'tkazamiz. Hamma avval o'z daftariga so'ngra esa doskaga mashq yoziladi. Birinchi, to'g'ri, chiroyli yozib faol qatnashgan o'quvchilar baholanadi.

1. *Yirik-yirik tomchilar yer-u ko'kni savalay ketdi.*
2. *To'p-to'p daraxtlar tag'in lipillab orqada qolib ketdi. Yirik-yirik, to'p-to'p aynan bir asosning takroridan hosil bo'lgan sifat, belgini kuchaytirishga xizmat qilyapti.*
3. *Ko'chani sho'x-sho'x bolalar to'ldirib o'tirishibdi. Sho'x-sho'x bir asosning aynan takroridan hosil bo'lgan. Takroriy sifat belgini takidlayapti.*
4. *Sayyohlar chaqqon-chaqqon harakatlari bilan qirga ko'tarila boshladi. Chaqqon-chaqqon bir asosning aynan takroridan hosil bo'lgan sifat takroriy sifat belgisini kuchaytiriyapti.*

Mashqni bajarishda o'quvchilar individual faoliyat olib borib, yangi mavzuni o'zlashtirishga ongli ravishda yondoshish mavzuni xotirada uzoq vaqt saqlab qolish maqsadida qo'llandi.

Hid bildiruvchn sifatlar. Bu tur sifatlar predmetning hidini ifodalash uchun xizmat qiladi: *xushbo'y, qo'lansa, sassiq, ifor, muattar* va b. Bunday sifatlar tilning lug'at boyligida juda kam sonni tashkil etadi. Shu tufayli bunday belgi uchun predmet nomlaridan foydalaniladi, ya'ni hidni ifodalash uchun predmet nomiga «hid» so'zini qo'shib aytish orqali qo'shma sifatlar hosil kilinadn: *atir xidi, rayhon*

hidi, yog' hidi, kerosin hidi, baliq hidi kabilar. Uyg'ongan el jizg'inak, qo'lansa, hidni dimoqqa zo'rlab uradi (Sh u h r a t).

Hid bildiruvchn sifatlarni yanada mukammal o'zlashtirish uchun uyga vazifa beriladi. Quyidagi sifatlarnitoping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Go'zal-go'zal bog'-u rog'lar yurtimiz jamolidir. Qalin-qalin yog'ayotgan qor inson ko'ngil xotiralari sari yetaklaydi. Dag'al-dag'al bo'lib ketgan qo'llari uning mehnatsevarligidan nishona. Uzun-uzun o'lchamdagi atlas, adras liboslar o'zbek xotin-qizlari xusniga husn qo'shadi. Yashil-yashil bo'lib yotgan ona tabiat bahorning kirib kelayotganligidan darak beradi. Dono-dono ota-bobolarimiz bizni doim ezgulikka undaydi. Siyrak-siyrak sochlari uning kasalligi jiddiy bo'lib o'tganidan darak. G'amgin-g'amgin ma'sum so'zlar ona ahvoliga jiddiy ta'sir etdi.

Vazn-og'irlik bildiruvchi sifatlarni. Predmetning og'ir yoki engillik belgisini ifodalash uchun qo'llanadn: *og'ir, engil, zildek, vazmin* va b. *O'ylashib ko'ramiz, uka,— dedi, oyoqlariga zilday og'ir choriqlarni kiyib* (O y b e k).

O'rin va paytga munosabat bildiruvchi sifatlarni. Bir qator si-fatlar o'rin va paytga munosabat bildirib keladi: *tonggi, kuzgi, kechki, keyingi, avvalgi, qishki, yozgi, ertangi, uydagi* va b.

Bu sifat turkumiga taalluqli so'zlar ko'pincha otlarga *-gi, -ki, -dagi* affpkslari qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi.

2.2 Tajriba-sinov ishlari natijalari.

Boshlang'ich sinflarda сифатнинг маъновий гуруҳини босқичма-босқич o'rganishni talab etiladi. Har bir yangi o'zlashtirilgan so'z keyingi darslarda mustahkamlanishi qaytarilishi lozim. Сифатнинг маъновий гуруҳига оид со'zlarni bo'g'inga ajratish, qayta-qayta o'qish, unga urg'u qo'yish, turlash, tushlash va gap tuzish topshiriladi. O'quvchining bu so'zlardan o'z nutqida qanday foydalanayotganligi tekshirib turiladi. O'quvchilarning fonetik tahlil qilishiga o'rgatish va darsning samaradorligini oshirish uchun, mustaqil ishning bir turi bo'lgan tarqatma materiallar bilan ishlash foydalidir, chunki tarqatma materiallar bilan ishlashda o'quvchi topshiriqni hech kimning yordamisiz o'zi bajarishga

harakat qiladi. Bunda o'rganilayotgan so'zni o'quvchi yaxshi o'zlashtiradi, og'zaki nutqi xam o'sadi, faol lug'ati ham boyiydi. Bu o'tilganlarni o'quvchilar qay darajada o'zlashtirganliklarini tekshirish uchun xam qulay.

Tarqatma materiallar darsning turini hisobga olib tarqatiladi. Tarqatma materiallar tuzish uchun quyidagi so'zlardan foydalanish lozim.

Оқ, кизил, сарик, яхши, қониқарли, гўзал, одобли, ибратли, доно, ақилли, оташин. Tarqatma materiallar bilan ishlashda so'zlarni ovoz chiqarib o'qishga so'zdagi tovush va harflar sonini to'liq aytishga, unli tovushni aniqlashga so'zni bo'g'inlarga ajratib, bo'g'inlar sonini aytishga urg'uli bo'g'inni topishga alohida e'tibor beriladi

O'quvchilar birinchi sinfda alifbe davridayoq, unli tovushlar ularning talaffuzi yoki yozuvda unli xarflar bilan ifodalanishi. Unlilarning bo'g'in hosil qilishini bilib oladilar. Shuningdek, talaffuzi bilan imlosi farq qilingan unlilar lug'atlarini; Shamol, mashina, navbatchi, bahor, bulut, butun, uchqun kabi bir qancha so'zlarni leksik ma'nolari bilan tanishadilar. O'quv yilining ikkinchi yarmida ona tili darslarida a. o. i. e. u. o'. unlilarning talaffuzi va yozilishini bilib olganlar.

2-sinfda unlilarning imlosini takrorlash va mustahkamlash mashqlari o'tkaziladi; aytilishi bilan yozilishida farq qiladigan unlilar bor so'zlarning talaffuzi bilan yozilishini farqlash, og'zaki va yozma nutqda ularning mustaqil va to'g'ri qo'llay olish, leksik ma'nosini aniqlash yuzasidan mashq qilinadi. Bunda qo'yidagi mashq turlaridan foydalaniladi.

1. Nutqlar o'rnini to'ldirib yozish,
 - A) Tushurib qoldirilgan qo'yib yozish;
 - B) Nuqtalar o'rniga so'zlar qo'yib, gaplarni to'ldirib yozish;
 - V) So'zlarning leksik ma'nosini aniqlash, lug'atini boyitish.
2. Rasmda ko'rsatilgaaan predmetlarning nomini yozish.
3. Rasmlarning nomini qo'yib, gaplarni to'ldirib yozish.
1. Aytilishi va yozilishida farq qiladigan unlilarning tagiga chizish.

5. Berilgan so'zlar bilan gap tuzish.
6. So'zlarni bo'g'inga va bo'g'in ko'chirish qoidasiga ko'ra bo'laklarga ajratib yozish.

152-mashq o'qituvchi rahbarligida doskada va daftarda ishlatiladi. 153-mashqni esa o'quvchilar mustaqil bajaradilar. Mustaqil ishning bajarilishi tekshirilgach, ақилли, чиройли, гўзал, одобли so'zlarining talaffuzi va imlosi izohlanib, o'quvchilarning lug'at daftarlariga yozadilar.

Uyga vazifa.

Keyingi darsda rasmga qarab hikoya tuzish va yozish ko'zda tutiladi.

Uy vazifasi topshirilgach, o'quvchilar rasmni diqqat bilan kuzatadilar. pasmda nimalarni ko'rayotganliklari, qanday voqea sodir bo'lganligi kabilarni tushunchalari bo'yicha so'zlab beradilar. O'qituvchi rasmdagi voqeaning to'la va batafsilroq yoritilishi uchun savollar beradi. Bunda voqeaning boshlanish vaqti, o'rni va har qaysi rasmdagi voqealar o'rtasidagi bog'lanishlar aniqlanadi. O'quvchilar rasmda aks etgan сифатнинг маъновий гуруҳига мансуб сўзларга таянган ҳолда матн тузадилар.

O'quvchilar сифатнинг маъновий гуруҳига мансуб сўзларнинг tuzilishiga e'tibor beradilar. Shu jihatlarni inobatga olib (quyonchaga Momiq, tipratikanga Yumaloq deb nom tanlashi mumkin) va darsdagi savollarga javob beradilar. O'quvchilarning javoblari quyidagicha bo'lishi mumkin.

Yoz kunlarining birida quyon Momiq bilan Yumaloq yog'och ustida o'ynayotgan edi. U birdan och bo'rini ko'rib qoldi. Ona quyon darrov Momiqni bag'riga oldi. Yog'ochning bir tamoni ko'tarilib ketdi. Yumaloq och bo'rining burniga borib urildi. Bo'ri qonga bo'yalib qochdi Momiq Yumaloq va ona quyon ahvoliga rosa kulishdi.

O'quvchilar hikoyaga jamoa ravishda sarlovha topadilar. O'quvchilar topgan «Bo'rining omadi kelmadi», «Qilmish-qidirmish», «Qilmishiga yarasha» kabi sarlavhalardan tanlaniladi. Sarlavha va hikoyaning rejasi doskaga yoziladi. Hikoyani yozishga imloviy tayyorgarlik ko'riladi, so'ngra reja asosida ikki-uch

o'quvchiga qayta hikoya qildiriladi. O'quvchilar hikoyani yoza olishiga ishonch hosil bo'lgach, uni yozishga ruxsat etiladi.

Сифатнинг маъновий гуруҳига мансуб сўзларнинг aytilishi va yozilishi.

Uy vazifasi tekshirilgach «Toychog'im» she'ri doskada o'qiladi. She'rdaги сифатга оид сўзлар ajratilib ko'rsatilgan, баъзи suzlarning ma'nosi lug'at daftarga yozdiriladi, talaffuzi va imlosi izohlanadi. O'quvchilar shunday so'zlarga misol aytadilar. O'quvchilar tanlagan so'zlardan 4-5 tasi izohlab yozdiriladi. 3 ta mashq mustaqil bajarila

Uyga vazifa.

Сифатнинг маъновий гуруҳига мансуб сўзлар.

Dars mustaqil ish bilan boshlanadi. Doskada сифатнинг маъно турларини ажратиб кўрсатади:

Қизил

Одобли

Яхши

Янги

Беъмалол

Оқ

Рангли

Мазали

Bolalar birinchi ustundagi рангни билдирувчи, ikkinchi ustundagi хусусиятни билдирувчи, учинчи ustundagi вақтни билдирувчи ва ҳақозо..... so'z tuzib yozadilar, ёзги, қишки, қора, янги, баъмани.

Mustaqil ish uy vazifasi bilan birgalikda topshiriladi. O'quvchilar сифатнинг маъновий гуруҳига оид so'zlarini o'qib, ularning talaffuzi va imlosini tushintiradilar.

Biz Guliston shahridagi -umumta'lim maktabining boshlang'ich sinflarida tajriba-sinov ishlarini olib bordik. Dars jarayonida o'quvchilar bilan сифатнинг маъновий гуруҳига мансуб сўзлар ustida ishlash va shu borada kuzatishlar olib

borildi. Tajriba sinflariga nafar o'quvchi, nazorat sinflariga o'quvchi jalb qilindi.

Biz sinflarda tadqiqot ishimizni davom ettirdik.

Biz tajriba sinflari uchun quyidagi ishlarni amalga oshirdik:

1. Сифатнинг маъновий гуруҳига мансуб сўзларни йиғиб, таҳлил қилдик.
2. Boshlang'ich sinflarda сифат сўз туркумига сўзлар қатнашган hikoyaга asosiy e'tiborni qaratdik.
3. Boshlang'ich sinflarda сифат сўз туркумининг қo'llash o'rnini bilan bog'liq masalalarga qat'iy e'tibor berdik.
4. Boshlang'ich sinflarda turli xil metodlardan, noa'naviy usullar asosida dars tashkil etildi.
5. Dars jarayonida turli didaktik vositalardan, magnitofon tasmalaridan foydalanildi.
6. Boshlang'ich sinflarda matnni tahlil qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, muammoli ta'lim elementlaridan foydalaniladi.

Biz tajriba sinflarda matn yaratish va uni tahlil qilishda кўпроқ мустақил равишда ишлашга ўргатишга қаратдик, savol-topshiriqlardan unumli foydalandik. Natija yomon bo'lmadi. Biz 85,4 foiz natijaga erishdik. Nazorat sinflarida esa 64, 8 foiz natija bo'ldi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Ona tili darslarida sўz turkumlarini ўrganiш ona tilimizdagi ishlatilgan sўzlarни tўliқ ўrganiшning bosқichlaridan biridir. Ўzbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida rivojlanishni boshlagandan biri ilm-fan va milliy madaniyatimizning har bir sohasida jiddiy o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Prezidentimiz I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” deb nomlangan kitobida ta’kidlaganidek, “O‘tmish davr mobaynida davlat tilining hayotimizdagi o‘rni va ta’sirini kuchaytirish, uni tom ma’noda milliy qadriyatiga aylantirish yo‘lida ilgari tasavvur ham qilib bo‘lmaydigan ulkan ishlar amalga oshirildi. Istiqlol yillarida O‘zbekiston uning qo‘llanish darajasi amalda nihoyatda kengaygan, uni ilmiy asoslab rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o‘ziga xos xususiyatlarida bag‘ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o‘quv qo‘llanmalari yangi-yangi lug‘atlar ko‘plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o‘z hissasini qo‘shmoqda.

Ўrganilgan ma’lumotlarga asoslangan holda quyidagi xulosaga kelindi:

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tili fanidan egallagan bilim, ko‘nikma va malakalari, kommunikativ – uslubiy savodxonligi mustaqil, ilmiy – ijodiy va ixtisosiy matn yaratish uchun yetarli emas.

2. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sifattning ma’noviy guruhiga oid sўzlarни tўliқ ўrganiш uchun vaqt va darsslikda berilgan ma’lumotlar etarli emas.

3. O‘quvchilarda sўz turkumlariga oid ma’lumotlarни ўrgatish uchun ma’lumotlar etarli emas.

4. O‘quvchilarning yozma ishlarida uchraydigan imloviy nuqsonlar izchil bartaraf etilgani holda gap qurilishidagi g‘alizliklar, mazmuniy, mantiqiy – uslubiy nuqsonlar ustida ishlash ona tili o‘qituvchilarining e’tiboridan chetda qolmoqda.

Ushbu bitiruv malakaviy ishini ham yuqoridagi talablarga qisman bo‘lsada hissa qo‘shadi, degan umiddamiz. Ish kirish, ikki bob va xulosadan iborat.

Mavzuni o‘tish o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish hamda nutqning rang-barangligini ta’minlaydi. Bir so‘z bilan aytganda o‘quvchilarning nutq madaniyati takomillashib boradi.

Biz bitiruv malakaviy ishini yozishda darslikda 1-4-sinf ona-tili darsligida berilgan sifatlar bo‘yicha o‘tilganlarni mustahkamlash darsida yangi pedagogik texnologiya asosida turli o‘yin topshiriqlar tavsiya qilindi.

Xulosa qilib aytganda sifatlarini o‘tishda quyidagilarga e’tibor qaratish kerak:

O‘zbek tilshunosligida sifatlar mavzusi bo‘yicha salmoqli ilmiy tadqiqotlar qilingan, shunga ko‘ra bu mavzuni umumiy o‘rta ta’lim maktabida ilmiy asoslangan bilimlarga tayangan holda o‘tishni rivojlantirish maqsadida qilingan ilmiy nazariy talqinlar sifatlarini o‘tishning ilmiy-amaliy asosini tashkil etishi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” Toshkent, 2009-yil.
2. I. Karimovning “Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydyevori. IX syessiyasida so‘zlagan nutqi. 1999-yil 29-avgust. Toshkent. Sharq. 1999.
3. I.Karimov “Jahon moliyaviy inqirozi. O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari”. Toshkent. 2009 y.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”.
6. Til va adabiyot ta’limi jurnali 2008 –yil 2-soni.
7. A.Nurmanov, I.Ikromov, F.Boynazarov “Yangi pedagogik texnologiya asoslari” falsafa va huquq INST. Toshkent. 2007 y.
8. Almatov T. Yadgorov Q, Pochchayeva G. “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” metodik qo‘llanma. Jizzax 2006 y.
9. B.To‘qliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova. “O‘zbekiston tili o‘qitish metodikasi”. Toshkent 2006 y.
10. E.Abdurahmonova “Grammatika imlo va nutq o‘stirishda tarqatma materiallar.
11. G.Negmatova “Ona tili ta’limining yangi texnologiyasi va o‘quvchilarining faoliyati turlari. Til va adabiyoti jurnali. T. 1999 y. 5-6-son.
12. N.A.Baskanov, A.Sodiqov, A.Abduazizov. “Umumiy tilshunoslik”. Toshkent. “O‘qituvchi”, 1979 y.
13. S.Mirzayeva “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi “Toshkent” “O‘qituvchi” 1992 y.
14. U.Tursunov, B.O‘rinboyev “O‘zbek adabiy tili tarixi”, Toshkent. “O‘qituvchi”. 1982.